

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

4-son (5-jild)
2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 4 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Maxmudov Mansurjon Abdug'opporovich

TARIXIY ASARLAR VA ULARNI O'RGANISH: MILLIY ZIYOLILAR TOMONIDAN

OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR 12-17

Qurbonov Xurshid Raupovich

O'ZBEKISTONDAN JANUBIY URALGA SAFARBAR QILINGAN

"MEHNAT ARMIYACHILARI" VA ULARNING TA'MINOTI 18-22

Salayev Fazliddin Shamsiddin o'g'li

O'ZBEKISTONDA DEMOGRAFIYANING RIVOJLANISH TARIXI VA SHAKLLANISHI 23-28

Abbasov Behzod Baxtiyorovich

FARG'ONA OBLASTIDA TASHKIL QILINGAN XO'JALIKLARDA IJTIMOIIY
MUAMMOLAR VA KO'CHIRILGAN AHOLINING YANGI SHAROITGA MOSLASHISHI

(1946-1965)..... 29-35

Mirzaliyev Ulug'bek, Klichev Ulug'bek

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY ARXIVLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

BORASIDAGI ISHLAR VA ISLOHOTLAR 36-39

Tursunova Gavhar Begmuradovna

ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIDA OLIB BORGAN

MA'MURIY-SIYOSIY BOSHQARUV TIZIMI

(XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI) 40-50

Vaxobov Doston Abdumannob o'g'li

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA MAKTAB, TIBBIYOT VA SOG'LIQNI SAQLASH

XODIMLARINING G'ALABAGA QO'SHGAN HISSASI 51-54

Sodiqova Yulduzxon Maxamat qizi

O'ZBEKISTONDA MAKTAB TA'LIMINI ISLOH QILINISHI VA UNDAGI O'ZGARISHLAR

(1991-2024 yy)..... 55-59

Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich

QUYI SIRDARYOBO'YI HUDUDLARIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK

TADQIQOTLAR VA ULARNING NATIJALARI 60-64

Yo'ldosheva Gulbahor Nuriddinovna

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING

AHVOLI VA MODDIY – TEXNIKA BAZASINING MUSTAHKAMLANISHI

(QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI MISOLIDA)..... 65-69

Mardiyeva Guzal Karimovna

XOTIN-QIZLARNING 1950-1980-YILLARDA SAMARQAND VILOYATI

ILM-FAN SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNINI 70-75

Narziyev Rustambek Xaydarovich

HARAKATLAR STRATEGIYASIDA NOGIRONLIGI BOR YOSHLAR UCHUN

YARATILGAN IMKONIYATLAR 76-80

<i>Abdullayev Ilhomjon Ikromjonovich</i> XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA NAMANGAN SHAHRINING IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI	81-87
<i>Sodiqova Maxbubaxon Raxmonaliyevna</i> O'ZBEKISTONNING MILLIY HUNARMANDCHILIGI RIVOJIDA IPAKCHILIKNING O'RNI	88-92
<i>G'ulomjon Jumanazarovich Axmedov</i> O'ZBEKISTON TARIXIDA KONCHILIK ISHI VA METALLURGIYA RIVOJLANISHI	93-99

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i> BARQARORLIK REYTINGI ORQALI FISKAL INTIZOM VA BIZNES MUHITINI RAG'BATLANTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI	100-116
<i>Юлдашева Надира Викторовна</i> «ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ЗАКУПКИ ПОД КОНТРОЛЕМ: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКОЙ МОДЕЛИ МОНИТОРИНГА».....	117-123
<i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i> ERKIN IQTISODIY ZONALARDA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISH	124-128
<i>Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li</i> TURISTIK VA REKREATSION KLASTERNING MUVAFFAQIYATLI FAOLIYAT YURITISH TAMOYILLARINI TIZIMLASHTIRISH	129-135
<i>Xadimova Aziza Abdufattoyevna</i> SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK O'ZGARISHLARI VA IQTISODIY RIVOJLANISHI.....	136-145
<i>Tashpulatov Giyos Toxirovich</i> XORIJYI BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR REYTINGI VA RENKINGINI BAHOLASHDA KOMPLEKS YONDASHUVNING QO'LLANILISHI TAHLILI (ROSSIYADAGI BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR MISOLIDA)	146-159
<i>Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna</i> O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA INSON KAPITALINING TA'SIRI	160-164
<i>Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi</i> “QUTIDA RO'YXATGA OLISH” (SHELF-REGISTRATION) AMALIYOTINI JORIY ETISH	165-169

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Komilov Ro'zi Rabiyeovich</i> OILA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MODDIY VA MA'NAVIY OMILLARNING FALSAFIY TAHLILI	170-172
<i>Хакимов Эркин</i> ЗНАНИЕ ЛОГИКИ КАК УСЛОВИЕ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ МЫШЛЕНИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ	173-180
<i>Usmonova Laylo Raxmatullayevna</i> SHARQ FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI.....	181-185
<i>Karimov Yo'ldosh Ergashevich</i> TARIXNI SOXTALASHTIRISHNING TARIXIY TAFAKKURGA TA'SIRI MASALALARI	186-191

<i>Agzamxodjaeva Шахноза Саидматмабевна</i> О ЦЕЛИ И СОДЕРЖАНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ЖИЗНИ, ДУХОВНОМ СОВЕРШЕНСТВЕ (ПО ПРОИЗВЕДЕНИЯМ АЛИШЕРА НАВАИ).....	192-195
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i> ZAMONAVIY IQTISODIY TARG'IBOT VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	197-204
<i>Evatov Salimjon</i> MARKAZIY OSIYODA TASAVVUFY TAFAKKUR RIVOJI: IX-XII ASRLAR MEROSI	205-209
<i>Turobov Yorqinjon Yoqub o'g'li</i> ISLOM TA'LIMOTIDA SIYOSAT VA HOKIMIYAT FALSAFASI	210-213
<i>Toshpulatov Odil Nodirovich</i> IJTIMOIY MUNOSABATLARDA AMORALIZM VA IMMORALIZMNI OLDINI OLISHDA MAVJUD ME'YORLARNING AHAMIYATI	214-217
<i>Kunisheva Nadira Julanovna</i> "IJTIMOIY BAG'RIKENGLIK" TUSHUNCHASINI TADQIQ ETISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI	218-223
<i>Eshpulatov Inoyat</i> FAXRIDDIN ROZIY YASHAGAN DAVR: IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYAT VA MA'NAVIY MUHIT	224-231
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Nuniyazova Shaxlo Ulugbekovna</i> O'ZBEK ONOMASTIKASIDA GIDRONIMLARNING LINGVOMADANIY SHAKLLANISHI	232-236
<i>Алиева Эльвина Аметовна</i> ЛЕКСИЧЕСКИЙ И ЛЕКСИКО-СИНТАКСИЧЕСКИЙ ПОВТОРЫ С РАСПРОСТРАНЕНИЕМ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОЧЕРКАХ М. ЦВЕТАЕВОЙ	237-243
<i>Usmanova Sevara</i> INGLIZ VA O'ZBEK TARIXIY ROMANLARIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TO'QIMA.....	244-251
<i>Ochilov Ulug'bek Sayfulloyevich</i> MAGIK REALIZMNING MADANIYAT VA ADABIYOTGA TA'SIRI	252-260
<i>Daminova Rahima Malikovna</i> ATOYI SHE'RIYATINING BADIY LATOFATI.....	261-266
<i>Yusupov Asror</i> PUBLITSISTIK MATNLARDA UCHROVCHI LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKLAR TARJIMASIGA LEKSIKOGRAFIK YONDASHUV	267-271
<i>Ruziyeva Nasiba Kenjayevna</i> VLADIMIR GEORGEVICH GAKNING TARJIMA MASALALARIGA DOIR TADQIQOTLARI	272-276
<i>Batirkhanova Madina Oybekovna</i> COMPONENT ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH FICTION.....	277-281
<i>Sirojiddinova Shakhribonu</i> THE FORMATION OF MYTHOLOGY AND THE INFLUENCING FACTORS.....	282-285

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Xodjiev Yunus Muxitdinovich

DAVLAT XIZMATLARI VA FUQAROLIK-HUQUQIY XIZMATLAR
TUSHUNCHASI HAMDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 286-292

Wang Cong

RESEARCH ON LEGAL ISSUES OF PERSONAL INFORMATION PROTECTION 293-300

Лу Адук

К ВОПРОСУ О ПОНЯТИИ И КЛАССИФИКАЦИИ ВИДОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ 301-310

Abdurashidova Zarina Turg'un qizi

FUQAROSIZLIKKA QARSHI MUROSASIZLIK: HUQUQIY CHORALARNING
NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI 311-315

Axmatov Olimjon Odilovich

“KRIPTO-AKTIVLAR VA VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF
RAVISHDA Olish, O'TKAZISH VA AYIRBOSHLASH: IQTISODIY, HUQUQIY
XAVF-XATARLAR VA ULARNING OLDINI Olishda SUN'IY INTELLEKTNING
O'RNI” 316-322

Xatamov To'liqin Tojiddinovich

KUCHLI TA'SIR QILUVCHI VA GIYOHVANDLIK VOSITALARINI YANGI
TURLARINI NOQONUNIY MUOMALASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING
NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI 323-329

Kuchimova Shaxlo

VORISLIK HUQUQIDA MEROS MAJBURIYATI 330-337

O'rinova Dilshoda Adhamovna

OILAVIY ZO'RAVONLIK JINOYATINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI
HAMDA USHBU TURDAGI JINOYATLARDAGI AYOLLAR JABRLANISHINI
OLDINI Olish BO'YICHA FARG'ONA TAJRIBASI 338-347

Geng Zhimin

RESEARCH ON THE INDEPENDENCE OF THE INTERNATIONAL CRIMINAL COURT..... 348-351

Xidirov Mexroj Qilich o'g'li

ELEKTRON TO'LOV VOSITALARI ORQALI SODIR ETILADIGAN FIRIBGARLIK
JINOYATLARINING SABABLARI, ULARNING SODIR ETILISHIGA IMKON
BERUVCHI OMILLAR 352-357

Тулаганов Элмурод

ВОПРОСЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ
ТРАНСФОРМАЦИИ 358-367

Bozorboyev Farruh, Boboxonov Akromxon

DASTLABKI TERGOV BOSQICHIDA PROTSESSUAL HARAKATLARNI
SODDALASHTIRISH: XOLIS INSTITUTI 368-374

Abbosov Mirsulton Mirsharof o'g'li

JINOYAT QONUNCHILIGIDA SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI VA UNING
IJTIMOIY XAVFLILIGI 375-382

<i>Mamatov Islom Qosim o'g'li</i> DAVLAT XARIDLARI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI FOSH ETISH USULLARI, AMALIYOTDAGI MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR	383-392
<i>Kamilov Oybek</i> O'ZBEKISTONNING MIGRATSIYA SOHASIDA MINTAQAVIY TASHKILOTLAR VA XORIJIY DAVLATLAR BILAN HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	393-402
<i>Абборова Камола Саидмухторовна</i> ВЛИЯНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО КОММЕРЧЕСКОГО АРБИТРАЖА НА ИНВЕСТИЦИОННЫЙ КЛИМАТ УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ	403-410
<i>Ne'matova Muborak Odiljonovna</i> RAQAMLI FUQAROLIKNING MOHIYATI VA UNI SHAKLLANTIRISHGA OID DOLZARB MUAMMOLAR (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	411-418
<i>Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi</i> "HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTIGA SUN'IY INTELEKTNI INTEGRATSIYA QILISHNING AXLOQIY VA HUQUQIY MASALALARI"	419-427
<i>Agzamova Qizlarxon Baxtiyorovna</i> INSOFLI EGALLOVCHINING HUQUQIY MAQOMIGA OID AYRIM MASALALAR	428-432
<i>Shomirzayev Saxodulla, Sherkulov Azamat</i> VALYUTA QIMMATLIKLARINI BOJXONA CHEGARASIDAN OLIB O'TISH BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLARNI ANIQLASH VA JAVOBGARLIK ASOSLARI	433-441
<i>Jumanazarov Faxriddin Erkinovich</i> KONTRAFAKT MAHSULOTLAR KONTRABANDASI NATIJASIDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI BUZILISHINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI	442-448
<i>Ergashev Sharifjon Shuhrat o'g'li</i> YASHIRIN IQTISODIYOTNING JAMIYAT IJTIMOY-IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI VA UNGA QARSHI KURASHISHDA BOJXONA AUDITINING O'RNI	449-457
<i>Mansurov Arslon Askarovich</i> "IJTIMOIY DAVLAT" TAMOYILINING YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI HUQUQIY MAQOMI VA XALQARO TAJRIBA BILAN TAQQOSLAMA TAHLILI	458-463

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i> "JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI" FANIDAN NAZARIY MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISH METODIKASI	464-470
<i>Yusubjanova Musharraf Tursunali qizi</i> EHTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKANI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QITISH: XORIJIY TAJRIBA VA ILMIY YONDASHUVLAR	471-475
<i>Fayzullayeva Gulchexra, Kurbonova Gulmira</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOLLABORATIV O'QUV MUHITINI LOYIHALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR	476-481

<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i> ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINING MAZMUNI VA TARKIBIY TUZILISHI.....	482-485
<i>Mirsanova Moxira Xusniddin qizi</i> FANTASTIK IFODA SHAKLLARI VA UNING BADIYYATI	486-491
<i>Tursinova Zoxida Sharabidinovna</i> TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAKTAB O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEKANIZMLARINING TAKOMILLASHUVIDA TA'LIM MENEJMENTINING O'RNI	492-496
<i>Раббимова Нодира Таштемировна</i> ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ИНФЕКЦИОННЫХ БОЛЕЗНЕЙ В ВУЗЕ	497-501

Received: 16 March 2025

Accepted: 5 April 2025

Published: 15 April 2025

Article / Original Paper

THE ESSENCE OF DIGITAL CITIZENSHIP AND URGENT ISSUES IN ITS FORMATION (ON THE EXAMPLE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN)

Ne'matova Muborak Odiljonovna

Doctoral Student of the Academy of Law Enforcement of the Republic of Uzbekistan

Abstract. The article analyzes the concept of digital citizenship, its main components and importance in modern society. The main problems faced by the formation of digital citizenship were studied using the example of Uzbekistan and ways to solve them were proposed. The interrelation of digital literacy, digital ethics, digital security, digital rights and responsibilities is revealed.

Keywords: globalization, digital citizenship, digital literacy, cybersecurity, unified interactive public services, e-government, digital inequality.

RAQAMLI FUQAROLIKNING MOHIYATI VA UNI SHAKLLANTIRISHGA OID DOLZARB MUAMMOLAR (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)

Ne'matova Muborak Odiljonovna

O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish akademiyasi doktoranti

Annotatsiya. Maqolada raqamli fuqarolik tushunchasi, uning asosiy komponentlari va zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati tahlil qilingan. Raqamli fuqarolikni shakllantirishda uchraydigan asosiy muammolar O'zbekiston misolida o'rganilib, ularni hal qilish yo'llari taklif etilgan. Raqamli savodxonlik, raqamli etika, raqamli xavfsizlik, raqamli huquq va majburiyatlarning o'zaro bog'liqligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, raqamli fuqarolik, raqamli savodxonlik, kiber xavfsizlik, yagona interaktiv davlat xizmatlari, elektron hukumat, raqamli tengsizlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I4Y2025N62>

Bugungi zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar insonning kundalik hayotining ajralmas qismiga aylanmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, elektron hukumat, masofaviy ta'lim, teletibbiyot – bu va boshqa ko'plab raqamli vositalar ijtimoiy hayotning barcha sohalarini o'zgartiradi.

Ko'plab tadqiqotchilar raqamli jamiyat deb ataydigan yangi ijtimoiy-madaniy voqelikning shakllanish jarayoni sodir bo'lmoqda. Bunday sharoitda fuqarolikning an'anaviy tushunchalarini qayta ko'rib chiqish va yangi paradigma – raqamli fuqarolikni shakllantirish zarurati tug'iladi.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va ularning jamiyat hayotining barcha jabhalariga ta'siri bilan bog'liq. Raqamlashtirish butun dunyoda xususan O'zbekistonda ham ijtimoiy munosabatlarning yangi shakllarini, aloqa usullarini, iqtisodiy o'zaro ta'sir modellarini va siyosiy ishtirok etish mexanizmlarini keltirib chiqarmoqda. Bunday sharoitda raqamli fuqarolikni shakllantirish insonning yangi voqelikka muvaffaqiyatli moslashishi va umuman jamiyatning samarali ishlashida muhim omilga aylanadi. Shu bilan birga, raqamli fuqarolikni

shakllantirish jarayoni bir qator muammolarga duch kelmoqda, jumladan raqamli tengsizlik, raqamli muhitda xavfsizlikni ta'minlash, raqamli texnologiyalardan foydalanishning axloqiy jihatlari, normativ-huquqiy tartibga solish va boshqalar. Ushbu muammolarni o'rganish va ularni hal qilish yo'llarini izlash muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida raqamli elektron axborot texnologiyalarining ma'lumotlarni ishlab chiqarish va uzatish vositasi sifatida ustunligi raqamli tarmoq jamiyati yoki tarmoq jamiyati tushunchasining paydo bo'lishiga turtki bo'ldi [1; B.125.]. Bu esa jamiyatimizga yangi tushunchalarni kirib kelishiga zamin yaratdi. Raqamli fuqarolik tushunchasi ham bundan mustasno emas. Bugungi kunda zamonaviy hayotimizda nisbatan yangi bo'lgan raqamli fuqarolik tushunchasi ilmiy maydonning asosiy muhokamalariga sabab bo'lib ulgurdi va turli bilim sohalari jumladan sotsiologiya, huquq, siyosatshunoslik, pedagogika, informatika va boshqa yo'nalishlarda tadqiqot mavzusiga aylandi. Ushbu tushunchaning murakkabligi va ko'p qirraliligi uning mohiyatini ochishda turli xil yondashuvlardan foydalanib tahlil qilishni nazarda tutadi. Masalan, Jared Koen va Erik Shmidtning fikrlariga ko'ra, raqamli fuqaro:

birinchidan, Internet aloqasidan foydalanish munosabati bilan olingan maqom sifatida, ya'ni raqamli fuqaro-onlayn(virtual) foydalanuvchi;

ikkinchidan, ijtimoiylashuvi ommaviy Internet tarqalishi davriga to'g'ri kelgan so'nggi (Z) avlodi vakillari raqamli fuqarolar qatoriga kiritilgan [2; B.66].

Shuningdek, amerikalik siyosatshunos Karen Mossberger ham o'z asarlarida raqamli fuqarolik konsepsiyasini ishlab chiqqan. Uning ta'rifiga ko'ra, raqamli fuqarolik – bu ommaviy axborot vositalari va davlatlarning siyosiy institutlarining texnologik o'zgarishi sharoitida shaxslarning jamiyat hayotida ishtirok etish qobiliyati (holati). Mossberger fikricha, raqamli fuqarolar qatoriga o'z fuqarolik burchlarini bajargan holda mehnat faoliyati davomida iqtisodiy foyda olish hamda siyosiy ma'lumotlarga ega bo'lish maqsadida raqamli texnologiyalardan tez-tez foydalanadigan har bir kishi kiradi [3; B.2].

Ushbu ta'rifdan kelib chiqib aytish mumkinki, raqamli fuqarolik – bu raqamli muhitda doimiy foydalanuvchi sifatida ishtirok etishdir.

Shu bilan birga, Mossberger fikricha raqamli fuqarolik jamoat hayotida ishtirok etishning uchta jihati bo'yicha namoyon bo'ladi, bular:

1. raqamli kommunikatsiya vositalaridan foydalanib, turli xil muloqot shakllariga qo'shilish,

2. internetning kishilarga jamiyat siyosiy hayotiga fuqaro sifatida ishtirok etish qobiliyatiga ta'siri

3. internetning mehnat bozoridagi imkoniyatlar tengligiga ta'siri.

Chunki raqamli kommunikatsiya shakllarining ochiqiligi va yetarliligi darajasi iqtisodiy farovonlikka erishishda muhim ahamiyatga ega [4; B.17-18].

Bundan tashqari, raqamli fuqarolikning dastlabki nazariyotchilaridan biri bo'lgan amerikalik tadqiqotchi Mayk Ribbl buni "texnologiyadan mas'uliyatli va samarali foydalanish normalari" deb ta'riflaydi. Uning ta'kidlashicha, raqamli fuqarolik nafaqat kompyuter yoki smartfondan foydalanish qobiliyati, balki raqamli jamiyatda yashash uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va qadriyatlarning butun tizimi hamdir [5; B.2].

Shuningdek, xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) o'zining ISO/IEC 24751-1:2008 standartida raqamli fuqarolikni "axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali, xavfsiz

va mas'uliyatli foydalanish uchun zarur bo'lgan vakolatlar va xulq-atvor modellari to'plami" ekanligini nazarda tutadi [6; B.27].

Rossiyalik tadqiqotchilar A. V. Sharikov va S. B. Simbalenko raqamli fuqarolikni "shaxsning raqamli texnologiyalar yordamida fuqarolik, siyosiy va ijtimoiy faoliyatda to'liq ishtirok etish qobiliyati" deb bilishadi. Ular raqamli fuqarolik zamonaviy fuqarolik o'ziga xosligining muhim tarkibiy qismi va raqamli jamiyatda shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvining omillaridan biri ekanligini ta'kidlaydilar [7; B.16].

Yuqoridagi yondashuvlar hamda M.Ribblning raqamli fuqarolik tushunchasining asosiy 9 ta elementlarini hisobga olgan holda, uning komponentlarini quyidagicha umumlashtirishimiz mumkin:

- **Raqamli savodxonlik (digital literacy)** –raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini, axborotni izlash, tahlil qilish, baholash va yaratish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bu komponent raqamli fuqarolikning asosini tashkil etadi, chunki texnologik ko'nikmalarsiz raqamli muhitda samarali faoliyat yuritish mumkin emas;
- **Raqamli kommunikatsiya (digital communication)** – bu turli raqamli vositalar yordamida samarali muloqot qilish qobiliyatidir. Masalan, elektron pochta, messenjerlar, ijtimoiy tarmoqlar orqali va h.k;
- **Raqamli xavfsizlik (digital safety)** – raqamli muhitda o'zini va o'z ma'lumotlarini himoya qilish qobiliyatini anglatadi. Bu komponentga shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish usullarini bilish, xavfsiz parollardan foydalanish, fishing, viruslar va boshqa kiber tahdidlarni aniqlash va ulardan himoyalaniish kabilarni misol qilish mumkin;
- **Raqamli huquq va majburiyatlar (digital rights and responsibilities).** Bu komponent raqamli muhitda insonning huquq va majburiyatlarini anglashini nazarda tutadi, masalan:
 - Shaxsiy ma'lumotlar himoyasi huquqi;
 - So'z erkinligi huquqi va uning chegaralari;
 - Mualliflik huquqi va intellektual mulk huquqi;
 - Raqamli muhitda qonunlarga rioya qilish majburiyati;
 - Boshqa foydalanuvchilarning huquqlarini hurmat qilish.
- **Raqamli etika (digital etiquette)** raqamli muhitda axloqiy qadriyatlarga tayanib faoliyat yuritishni anglatadi:
 - Kiber tahdiddan tiyilish;
 - Boshqa foydalanuvchilarga hurmat bilan munosabatda bo'lish;
 - Onlayn muloqotda til va ifoda madaniyatiga rioya qilish;
 - Boshqalarning shaxsiy ma'lumotlarini hurmat qilish;
 - Axborotni tarqatishda mas'uliyatli bo'lish.
- **Tanqidiy fikrlash (critical thinking)** raqamli makonda uchraydigan axborotni baholash va tahlil qilish qobiliyatidir:
 - Axborot manbalarining ishonchliligini tekshirish;
 - Faktlarni fikrlardan ajrata olish;
 - Soxta xabarlarini aniqlash;
 - Manipulyatsiya va propaganda usullarini aniqlash;

- Mantiqiy xatolarni ko'ra bilish.
- **Raqamli ishtirok (digital participation)** — bu raqamli muhitda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish:
 - Onlayn jamoalarda ishtirok etish;
 - Ijtimoiy ahamiyatga ega masalalarda fikr bildirish;
 - Raqamli texnologiyalarni ijtimoiy foydali maqsadlarda qo'llash;
 - Elektron demokratiya mexanizmlaridan foydalanish;
 - Ijobiy raqamli mazmun yaratish va tarqatish kabilarni nazarda tutadi.

So'nggi yillarda yurtimiz ham raqamli transformatsiya yo'lida jadal harakatlarni amalga oshirmoqda. Raqamli fuqarolik tushunchasi mamlakatning zamonaviy rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilmoqda. Garchi tadqiqotchilar, fan arboblari tomonidan raqamli fuqarolik tushunchasiga muayyan ta'rif berilmagan bo'lsa-da, O'zbekistonda allaqachon raqamli fuqarolik jarayonining normativ-huquqiy asoslari yaratilgan va bu sohada talaygina ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Masalan, raqamli fuqarolik jarayonining huquqiy asoslari sifatida quyidagi qonun va qonunosti hujjatlari, dastur va strategiyalar ishlab chiqildi:

- 2002-yil 12-dekabrda qabul qilingan "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonun — fuqarolarning axborotga bo'lgan huquqlarini kafolatlaydi.
- 2015 yil 18-noyabrda qabul qilingan "Elektron hukumat to'g'risida"gi qonun – davlat xizmatlarini raqamlashtirishning asosiy prinsiplarini belgilab berdi;
- 2019-yil 2-iyulda qabul qilingan "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun — shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish mexanizmlarini belgilaydi;

"Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi — 2020-yilda tasdiqlangan bu strategiya mamlakatda raqamli iqtisod va jamiyatni shakllantirish bo'yicha uzoq muddatli yo'nalishlarni belgilab berdi. birgina ushbu strategiya doirasida mobil aloqa tarmog'ini 4G va 5G texnologiyasi bo'yicha rivojlantirish, barcha aholi punktlari va ijtimoiy obyektlarni optik va mobil keng polosali xizmatlardan foydalanish tarmoqlari bilan qamrab olish, avtomagistral va temir yo'llari, turistik obyektlarni mobil aloqa tarmoqlari bilan qoplashni ta'minlash, Internet jahon axborot tarmog'iga ulanish tariflarini takomillashtirish va optimallashtirish, geografik joylashuvdan qat'iy nazar, fuqarolarning o'sib borayotgan axborotga ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun keng polosali simsiz va mobil texnologiyalarni yanada rivojlantirish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilandi [8].

- **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish sohasidagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni.**

Yuqorida keltirilgan davlat dasturlari asosida O'zbekistonda raqamli fuqarolikni rivojlantirish maqsadida quyidagi islohotlar amalga oshirildi:

- **Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) joriy etildi.**

Bugungi kunda bu portal orqali fuqarolar 736 dan ortiq elektron davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega. Portalda ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar soni 10 milliondan oshgan (10 mln 400 ming kishi [9]).

- **Elektron ID-karta tizimi**

2021-yildan boshlab O'zbekistonda zamonaviy ID-kartalar joriy etildi. Bu kartalar raqamli identifikatsiya vositasi sifatida xizmat qiladi va fuqarolarga raqamli xizmatlardan foydalanish imkonini beradi.

▪ “Elektron hukumat” tizimi

Elektron hukumat tizimi yordamida davlat organlari o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi avtomatlashtirilgan, shuningdek, fuqarolarga davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayoni soddalashtirilib, shaffof qilingan.

▪ Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari markazi


Bu markaz raqamli ko'nikmalarga o'qitish va raqamli savodxonlikni oshirish imkonini bermoqda.

Ushbu islohotlar orqali raqamli fuqarolik bo'yicha erishilgan natijalar

2023-yil holatiga ko'ra:

- Davlat xizmatlarining 80% dan ko'proq qismi elektron shaklda ko'rsatilmoqda;
- Har oyda o'rtacha 2 milliondan ortiq elektron davlat xizmatlari ko'rsatilmoqda [10].

▪ Internet tezligining oshish darajasi (sxemaga qarang).



[1] Включая объёмы "UNITEL" и "RUBICON WIRELESS COMMUNICATION" Ташкентской области

Amalga oshirilayotgan islohotlar va sa'y harakatlarga qaramasdan raqamli fuqarolikni shakllantirishda har qanday davlat singari O'zbekiston ham bir qator muammolarga duch kelmoqda.

▪ Raqamli tengsizlik

Raqamli tengsizlik — bu jamiyatning turli qatlamlari o'rtasida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari va ko'nikmalaridagi tafovutdir. Bu muammo quyidagi omillar bilan bog'liq:

-Infratuzilma tengsizligi: hududlar, ayniqsa shahar va qishloq joylari o'rtasida internet va raqamli texnologiyalar infratuzilmasining notekis rivojlanganligi;

— Iqtisodiy tengsizlik: aholining barcha qatlamlari ham raqamli qurilmalar va internet xizmatlaridan foydalanish uchun yetarli moddiy imkoniyatlarga ega emasligi;

— Ko'nikmalar tengsizligi: turli yosh, kasb va ijtimoiy guruhlar o'rtasida raqamli ko'nikmalar darajasidagi sezilarli farqlar mavjudligi.

Raqamli tengsizlik raqamli fuqarolikning to'laqonli shakllanishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi, chunki u jamiyatning katta qismini raqamli imkoniyatlardan mahrum qiladi.

▪ **Raqamli xavfsizlik muammolari**

Raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan birga kiber tahdidlar ham ko'paymoqda:

— Kiber jinoyatchilikning keng tarqalishi: fishing hujumlari, shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash, viruslar va boshqa zararli dasturlar sonining ortishi;

— Shaxsiy ma'lumotlar himoyasi bilan bog'liq muammolar: Internetda shaxsiy ma'lumotlarning yig'ilishi, saqlanishi va ulardan foydalanish ustidan nazoratning yetishmasligi.

▪ **Axborot xavfsizligi**

— Soxta xabarlar: Internetda yolg'on axborot va soxta xabarlar keng tarqalganligi;

— Axborot manipulyatsiyasi: ijtimoiy tarmoqlarda va OAVda axborot manipulyatsiyasi usullari keng qo'llanilishi;

— Filtr pufaklari: algoritmlar foydalanuvchilarga faqat ularning fikrlariga mos keluvchi kontentni ko'rsatadi, bu esa fikrlar xilma-xilligini cheklaydi.

▪ **Huquqiy muammolar**

— Qonunchilik bazasining mukammal emasligi ya'ni raqamli muhitda huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik bazasi hali yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda raqamli fuqarolik tushunchasining muayyan ta'rifi berilmaganligi;

— Aholi orasida huquqiy savodxonlik darajasi pastligi.

▪ **Raqamli etika**

— Onlayn tajovuz va kibertahdidlar: Ijtimoiy tarmoqlarda agressiv munosabatlar, trolling va kibertahdid kabi muammolar ko'payishi;

— Intellektual mulk huquqi: ko'pchilik foydalanuvchilar boshqalarning intellektual mulk huquqlarini hurmat qilmasligi, tovar belgilar va nomlarini o'zlashtirib olishi;

— Raqamli qaramlik: Raqamli qurilmalar va ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning kuchayishi.

Xulosa va takliflar. Yuqorida sanab o'tilgan raqamli fuqarolikni shakllantirishdagi muammolarni hal etish hamda shakllantirishda quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak:

Birinchi navbatda, **ta'lim sohasidagi islohotlar** amalga oshirilishi lozim, chunki aynan muammoning ildizi erta ta'lim vaqtlarida kurtak yoza boshlaydi:

— Maktab ta'lim dasturlarida raqamli savodxonlikka e'tibor qaratish, bolalarni yoshligidan raqamli texnologiyalardan to'g'ri foydalanishga o'rgatish.

— Kattalar uchun raqamli savodxonlik dasturlari ishlab chiqish;

— O'qituvchilarning raqamli texnologiya vositlari borasida malakasini oshirish va ularni ta'lim jarayonida qo'llay bilish ko'nikmalarini oshirish;

Shuningdek, **raqamli tengsizlikka qarshi kurashish** maqsadida:

— Barcha hududlarda sifatli internet xizmatini ta'minlash;

— Iqtisodiy nochor qatlamlar uchun arzon raqamli qurilmalarni ishlab chiqarish va tarqatish;

— Ochiq ta'lim resurslarini rivojlantirish, bepul ta'lim resurslarini yaratish.

Bundan tashqari, **qonunchilik bazasini takomillashtirish** borasida:

— Raqamli muhitdagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlarni ishlab chiqish;

— Raqamli muammolarni yechishda xalqaro darajada hamkorlikni kucha;
 — Huquqiy madaniyatni oshirish ya'ni fuqarolarning raqamli huquq va majburiyatlari to'g'risida xabardorligini oshirish.

Raqamli xavfsizlikni ta'minlash maqsadida:

— Kiber xavfsizlik bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish va qo'llanmalar yaratish;
 — Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning kiber jinoyatchilikka qarshi kurashish salohiyatini oshirish;
 — Aholining barcha qatlamlari uchun raqamli xavfsizlik bo'yicha treninglar o'tkazish.

Raqamli etikani targ'ib qilish sohasida:

— Raqamli etika kodeksini ishlab chiqish (Internetda va raqamli muhitda axloq-odob normalarini belgilovchi kodeksni ishlab chiqish);
 — Ommaviy axborot vositalari va ta'lim muassasalari orqali raqamli etikani targ'ib qilish.

Umuman olganda, raqamli fuqarolikni insonning ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun raqamli texnologiyalardan samarali, xavfsiz va mas'uliyat bilan foydalanish qobiliyati deb ta'riflash mumkin. Ushbu konsepsiya nafaqat raqamli qurilmalar va dasturlardan foydalanishning texnik ko'nikmalarini, balki raqamli dunyoda o'z huquq va majburiyatlarini tushunishni, ma'lumotni tanqidiy baholash qobiliyatini, onlayn muloqotning axloqiy me'yorlariga rioya qilishni va boshqa jihatlarni ham o'z ichiga oladi.

O'zbekistonda ham raqamli fuqarolik asoslari shakllanib, rivojlanish bosqichida. Mamlakatda raqamli transformatsiya jarayonlari jadal sur'atlar bilan amalga oshirilmoqda. Raqamli fuqarolikning to'liq shakllanishi uchun hali ko'plab chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Biroq, bugungi kunda davlat tomonidan qabul qilingan strategiyalar va dasturlar mamlakatni yaqin kelajakda raqamli jamiyat sifatida shakllantirish uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Шамсудинова С.С. Метаморфозы цифрового сетевого общества: монография. – Томск: Издательство Томского государственного университета, 2024. – 125 с
2. Цифровые граждане, Цифровое гражданство И Цифровая гражданственность. БРОДОВСКАЯ Елена Викторовна – доктор политических наук; профессор департамента политологии и массовых коммуникаций Финансового университета при Правительстве РФ. <https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovye-grazhdane-tsifrovoe-grazhdanstvo-i-tsifrovaya-grazhdanstvennost>
3. Mossberger K., Tolbert C.J., Mcneal R.S., Digital citizenship. The Internet, Society and Participation. Cambridge Ma: Mit Press, 2007. – 240 p.
4. В. Шаршун. Цифровые обязанности как элемент цифрового гражданства (Digital responsibilities as an element of digital citizenship). <https://www.academia.edu>
5. M. Ribble.; S. Bailey., D.Gerald.; Ross, Tweed W. Digital citizenship: Addressing appropriate technology behavior. <https://eric.ed.gov/?id=EJ695788>
6. ISO/IEC 24751-1:2008. Information technology — Individualized adaptability and accessibility in e-learning, education and training — Part 3: "Access for all" digital resource description. <https://www.iso.org/ru>
7. Цымбаленко С.Б., Шариков А.В., Щеглова С.Н. Российские подростки в информационном мире (по результатам социологического исследования). <https://mediaeducation.ucoz.ru>

8. В. Шаршун. Цифровые обязанности как элемент цифрового гражданства (Digital responsibilities as an element of digital citizenship). <https://www.academia.edu>
9. Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi PF-6079 sonli Farmoni bilan tasdiqlangan. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957#-5031892>
10. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali, umumiy statistika. <https://my.gov.uz/oz/site/statistic-page>
11. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali, umumiy statistika. <https://my.gov.uz>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).